

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 321.01:316.334.3

DEMOKRATIK JAMIYATDA SIYOSIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ

PROBLEMS OF DEVELOPING POLITICAL THINKING IN A DEMOCRATIC SOCIETY

Tuxtasinov Mamarasul Rayimjon o'g'li 

Quva tumani 29-umumiy o'rta ta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada siyosiy tafakkur endogen xususiyatlari, siyosiy tafakkurni demokratik jamiyat rivojiga ta'siri va siyosiy tafakkur endogen xususiyatlarining demokratik jamiyat rivojiga ta'siri imkoniyatlari hamda siyosiy tafakkur endogen xususiyatlarining demokratik jamiyat rivojiga ta'sirining ijtimoiy ahamiyati tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются эндогенные характеристики политического мышления, влияние политического мышления на развитие демократического общества, возможности влияния эндогенных характеристик политического мышления на развитие демократического общества, а также социальная значимость влияния эндогенных характеристик политического мышления на развитие демократического общества.

Abstract

In this article, the endogenous characteristics of political thinking, the influence of political thinking on the development of a democratic society, the possibilities of the influence of endogenous characteristics of political thinking on the development of a democratic society, and the social significance of the influence of the endogenous characteristics of political thinking on the development of a democratic society are studied.

Kalit so'zlar: siyosiy tafakkur, huquqiy madaniyat, siyosiy madaniyat, demokratiya, demokratik jamiyat, demokratik islohotlar.

Ключевые слова: политическое мышление, правовая культура, политическая культура, демократия, демократическое общество, демократические реформы.

Key words: political thinking, legal culture, political culture, democracy, democratic society, democratic reforms.

KIRISH

Dunyoda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois 2 milliarddan ortiq yoshlarning ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan kurash avj olmoqda. Yoshlar siyosiy tafakkurining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berishimunosabati bilan mazkur masala tobora global va dolzarb ahamiyat kasbetmoqda. BMT Bosh assambleyasi tomonidan yoshlarni ijtimoiy-huquqiy va siyosiy jihatdan faol etib tarbiyalash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Yoshlarning ma'naviyatini, siyosiy tafakkurini yuksaltirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, innovatsion usul va vositalarini yaratish, ushbu tizimni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jahonda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning siyosiy tafakkurini shakllantirishning metodologik jihatlari, yuridik tabiatini tahlil etish, shuningdek, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning siyosiy xabardorligini oshirishning ta'sirchan mexanizmlari shakl va usullarini tadqiq etish muhim ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siri darajasini oshirish, ularni jamoat va davlat ishlariga keng jalb etish, turli institutlar orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faolligini kuchaytirishning qonuniy yechimlarini topish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Siyosiy tafakkurni yuksaltirishning ayrim jihatlari milliy huquqshunos olimlardan E.Abzalov, N.Vaxobov, D.Dehqonova, X.Zakirov, Z.Islomov, I.Kudryavsev, Z.Madaliyeva, X.Mamatov, O.Nasriddinova, X.Odilqoriev, Yo.Sadikova, A.Saidov, U.Tojixonov, N.Saydalixodjaeva,

FALSAFA

R.Turdiboeva, A.Xamraev, Sh.Yakubov hamda siyosatshunos olimlardan B.Jo'raev, S.Jo'raev, L.Tangriev, Sh.Ermatov kabilarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.

Xorij mamlakatlari huquqshunos olimlaridan Ye.Agranovskaya, R.Bayniyazov, N.Voplenko, O.Demko, Yu.Dmitriev, N.Keyzerov, A.Malko, N.Matuzov, V.Salnikov, A. Veyl, D. Iston, Dj. Dennis, S.Palonskiy, Dj. Piaje, Dj. Kevin, Dj.Torni-Purta, S.Stevenson, L.Matveev, G.Matveev va boshqalarning ilmiy ishlarida o'spirin yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishning ayrim jihatlari o'rganilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Jamiyatda siyosiy tafakkurni yuksaltirish muammolarini u yoki bu tarzda o'rgangan mutaxassislar tomonidan ilgari surilayotgan turli yondashuvlar va nuqtai nazarlarni teran tahlil qilish talab etilmoqda. Siyosiy tafakkur muayyan jamoada yashovchi odamlarning huquqiy ongi va huquqiy-siyosiy madaniyati yuksakligi darajasi, yuridik normalar va yuridik faoliyat (huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati)ning yuksalishi bilan belgilanadi. Uning negizini huquq haqidagi bilimlar va uning talqinlari, shuningdek, unga muvofiq bo'lgan sa'y-harakatlar tashkil etadiki, ularning barchasi jamiyatda fuqarolar huquqiy-siyosiy madaniyati darajasi bilan bevosita bog'liq.

Siyosatning normativ sharhi, avvalombor, qadimgi davrlarda yuzaga kelgan. Aristotel siyosatni inson hayotiy faoliyatining oliy shakli hisoblab, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda maqsadga erishuvi davomida adolat qaror topishini ta'kidlagan. "Adolat faqat siyosiy hayotdagina bo'lishi mumkin, chunki butun siyosiy tizimning o'zi huquqqa asoslanadi", – deb qayd etadi[1]. Ma'lum bo'ladiki, huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ilmiy adabiyotlarda inson siyosiy mavjudot deya etirof etiladi. Siyosat jamiyatdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Siyosat aynan qonun vositasida amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan huquq va siyosat garchi bir narsa bo'lmasa-da, mantiqan biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan hodisadir. Huquq va siyosatning mazmun-mohiyati odamlar tomonidan dialektik aloqadorlikda idrok etilishi va ularni amalda qo'llash orqali barqaror ijtimoiy mexanizmning yaratilishiga zamin bo'ladi.

"Siyosiy tafakkur" tushunchasi dastlab XVIII asrda nemis ma'rifatparvar faylasufi I.Gerder tomonidan qo'llangan degan fikr keng ommalashgan. Siyosiy madaniyatni nazariy jihatdan o'rganishga XX asrning 50-yillarida amerikalik politolog G.Almond tomonidan asos solingan. U keyinchalik S.Verba, J.Pauel, L.Pay, M.Kroze hamda boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Ushbu olimlar "siyosiy tafakkur" tushunchasini tadqiq etishga empirik va nazariy jihatdan kompleks yondashib, uning institutsional mohiyatini tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishgan edi. Siyosiy tafakkur tushunchasining mohir tadqiqotchilaridan biri amerikalik olim G.Almond esa siyosiy tafakkurni siyosatga nisbatan munosabati mavjud kishilarning ongida chuqur ildiz otgan siyosiy yo'nalish va e'tiqod yoki ularning xulq-atvorini yo'naltiruvchi qadriyatlar tizimi sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, u siyosiy tafakkurga xos bo'lgan ikki asosiy element: siyosiy ong va siyosiy xulq-atvorni siyosiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qayd etadi.

Professorlar H.Odilqoriyev va Sh.G'oyibnazarovlar siyosiy tafakkurni umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi, tarixiy-siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvorning mushtarakligi,[2] – deb ta'riflashadi. Professor I.Ergashev siyosiy madaniyat turli xil xalqlarning yoki millatlarning, ijtimoiy-siyosiy birliklarning siyosiy voqelik to'g'risidagi, siyosat, qonunlar va uning amal qilish qoidalari, qadriyatlari to'g'risidagi tasavvurlaridir[3], - degan fikrni ilgari suradi. Fikrimizcha, olimning ta'rifi siyosiy madaniyatni faqat muayyan tasavvurlar yig'indisidan iborat qilib qo'ymoqda. U mukammal bo'lishi uchun siyosiy madaniyat tushunchasiga siyosiy bilimlarni, siyosiy tajribani, shuningdek, bu madaniyat subyektlarining siyosiy faolligi masalalarini ham kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Siyosatshunos olim R.Jumayev siyosiy tafakkurni fikrlash, voqelik va hodisalarga ongli munosabatda bo'lish hamda tizimli dunyoqarash hosil qilishning asosi hamda har bir shaxs maqsadli harakat qilishining zamini,deb hisoblaydi[4].

Rus olimlari N.Blinov, Yu.Ojegov va F.Shergilar: "Siyosiy tafakkurning o'zagini hamisha inson, uning shakllanishi va kamol topishi tashkil etadi. Siyosiy tafakkur siyosiy ong bilan uzviy bog'liq, ammo u bilan aynan bir narsa emas. Zero, u siyosiy ongning real siyosiy faoliyatiga xos xususiyatni ochib beradi. U faqat insonning fikrlari va his-tuyg'ularini emas, real harakatlari va qilmishlarini ham tavsiflaydi. Siyosiy tajriba, an'analar, siyosiy bilimlar va sezgilar masalasiga kelsak, "ular siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlaridir,"[5]– deb qayd etishgan.

Mazkur fikr siyosiy madaniyat bevosita insonning shakllanish va kamoloti jarayonlari bilan bog'liqligini anglatadi. Siyosiy tafakkur bir avlod vakillaridan keyingisiga siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy bilim, siyosiy qadriyat va siyosiy an'analar orqali meros bo'lib o'tadi. Professor X.Odilqoriyevning ta'kidlashicha, siyosiy madaniyat keng ma'noda siyosiy munosabatlar subyektlarining siyosiy tajribasi, siyosiy bilimlari va sezgilari darajasi, faoliyat va xulq-atvor namunalari majmuyining ko'rsatkichi, mamlakat, xalq, millat, ijtimoiy guruh va individlar turmush tarzining umumiy ta'rifi bo'lib xizmat qiladi. U ijtimoiy tabaqalar va alohida odamlarning siyosat sohasidagi tarixiy tajribasi va tarixiy xotirasini, siyosiy xulq-atvorga ta'sir etuvchi ko'nikmalari va moyilliklarini ifoda etadi. Siyosiy tafakkur siyosiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni amalga oshirishning muayyan yo'nalishini, "texnologiyasi"ni belgilab beradi. U individlar va siyosiy guruhlar siyosiy ongi bilan o'zaro ta'sir aloqalarida bo'ladi. Shuning uchun ham siyosiy madaniyatga faqat siyosat subyektlarining ayrim bilimlari va qadriyatlari, tajribasi, an'analari va faollik darajasining majmuyi deb qaramaslik kerak. Siyosiy tafakkur, shuningdek, odamlarning muayyan siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni, usuli hamdir[6].

Siyosiy tafakkurning mohiyati siyosiy munosabat ishtirokchilarida ijobiy xislatlarni tarbiyalash va faol harakatlar qilish malakasini shakllantirishdan iborat. Siyosiy tafakkur har qanday jamiyat siyosiy tizimining muhim elementi bo'lib, "xulq-atvor namunalari, qadriyatlar, hissiyotlar, qarashlar, turmush tarzi orqali siyosiy institutlar va jarayonlarni bir-biri bilan bog'lovchi siyosatning "insoniy mezon"ni aks ettiradi". Bu ta'rif mazmun jihatidan siyosiy madaniyatni davlat, fuqarolik jamiyati va shaxs o'zaro aloqasining bir qismi deb tushunishga juda mos keladi[6].

Fikrimizcha, keltirilgan tahliliy mulohazalarda siyosiy madaniyatning eng asosiy xususiyatlari va jihatlari qamrab olingan. Siyosiy tafakkur ham huquqiy madaniyat kabi vorisiylik xususiyatlariga ega. U turli tarixiy taraqqiyot davrlarida shakllanib, rivojlanib boradi. Siyosiy tafakkur bir avlod vakillaridan keyingisiga siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy bilim, siyosiy qadriyat va siyosiy an'analar orqali meros bo'lib o'tadi.

Amerikalik siyosatshunos olim Ch.Merriam jamoatchilikning fikrini asosiy vosita deya to'g'ri baholagan. Shuningdek, u fuqaro tarbiyasiga yo'naltirilgan "faol fuqaro" ni yetishtirish har bir davlatning asosiy vazifasidir[7], degan fikrni qayd etadi. Demak, mazkur fikrga asoslanib, huquqiy va siyosiy madaniyati yuksak yoshlar mamlakat taraqqiyotining kafildir deyish o'rinli.

Mutaxassis olimlarning fikriga e'tibor qilsak, ularning har biri keng qamrovli tushuncha sanalmish siyosiy madaniyatning u yoki bu jihatini talqin etishgan. Ushbu konseptual tushunchaning bir necha o'nlab ta'riflari mavjud. Lekin uning hali yagona tizimlashtirilgan yaxlit bir ta'rifi yo'qligidan kelib chiqsak, siyosatshunos olimlarning ilmiy talqiniga qo'shilish mumkin.

Odamning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy jarayonlarda qatnashish sabablari har xildir: shaxs ongida demokratik qadriyatlarning mustahkam o'rnashishi; o'zining ijtimoiy burchlarini tushunish va shaxsiy huquqlarini amalga oshirish xohishi; yuqori darajada madaniy-ma'naviy saviyaga ega bo'lish; o'z manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg'un tarzda ongli idrok etish hamda yangi ijtimoiy maqomni egallash ehtiyojini anglash insonning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy hayotdagi ishtirokiga sabab bo'lishi mumkin. Mamlakat fuqarolarini tub islohotlar jarayoniga jalb qilish faoliyati ham inson faolligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Rus olimasi Ye.M.Krupenya "Huquqiy-siyosiy faollik" – bu davlat boshqaruvi va siyosiy tizimda fuqarolik jamiyatining qaror topishida fuqaroning bevosita ommaviy tarzda shaxsiy faol ishtirokida qo'llaniladigan nazariy-huquqiy tuzilmadir[8], degan fikrni ilgari suradi.

XULOSA

Xulosa qilganda, siyosiy tafakkurning yuqoridagi tahlilidan quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz: siyosiy tafakkur insonning siyosiy-tarixiy tajriba asosidagi siyosiy tizim, siyosiy voqelik, siyosat, qonunlar va ularning amal qilish holati haqidagi tasavvurlari, shaxsning fikrlash, voqelik va hodisalarga ongli munosabati hamda tizimli dunyoqarash hosil qilishning asosi yoxud har bir shaxs muayyan siyosiy tizimda maqsadli harakat qilishining zaminidir. Siyosiy tafakkur tushunchasi o'z tuzilishiga ko'ra siyosiy bilim, siyosiy ong, siyosiy sezgi va siyosiy xulq-atvor kabi muhim elementlardan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel. Politika. M., 1865. S. 11.
2. Odilqoriyev H.T., G'oyibnazarov Sh.G'. Siyosiy madaniyat. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. – B. 5.

FALSAFA

3. Ergashev I. Siyosat falsafasi. Toshkent, "Akademiya", 2004 yil, 27–bet.
4. Jumaev R. Davlat va jamiyat: Demokratlashtirish yo'lida. – T.: "Sharq", 1998. – B. 118–119.
5. Blinov N., Ojegov Yu., Sheregi F. Politicheskaya kultura i molodyoj. – M., 1982. – S. 8.
6. Odilqoriev X.T. Siyosiy madaniyat – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili. "Fuqarolik jamiyati", 2009. №4. – B.4-5.
7. Merriam C.E. The Making of Citizens: A Comparative Study of Methods of Civic Training. Chicago, 1931. R. 5.
8. Krupenya Ye.M. Politika-pravovaya ativnost lichnosti. – M.: Universitetskaya kniga, 2009. – S. 40.